

**YOSHLARNING KASB TANLASH JARAYONIDA OILANING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Doliyeva Xosiyat Allamurodovna

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 14-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA: *Oila jamiyatning muqaddas bo'g'ini sifatida qarar ekanmiz, albatta, bu qo'rg'onning ustunini mustahkamlash, qaddini rostdash muhimdir. Aks holda qo'rg'onga putur yetadi. Bu ustun Yaratgan tomonidan ato qilingan ne'mat ya'ni, farzand ekanligi inkor etib bo'lmay voqeadir. Oilada farzand tarbiyasi juda nozik parvarishni talab qilishi ota va onalik martabasiga erishganlar uchun begona emas.*

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, Vatan, maqsad, san'at*

KIRISH

Jamiyatga ulkan hissa qo'shadigan, ulug' maqsad sari intiluvchi shaxs sifatida shakllangan farzandni tarbiyalash ma'suliyatli vazifadir. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir," – degan fikri ham yuqoridagi fikrlarimizga hamohangdir.

Prezidentimizning "Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatları, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi" deb, ta'kidlaganlari ilgari surmoqchi bo'lgan fikrimizni asoslaydi hamda oiladagi farzand tarbiyasi masalalariga jiddiy e'tibor qaratishimizga undaydi.

Buyuk mutafakkirlarimiz tarbiya masalalarida juda ko'plab fikr va qarashlarini ilgari surib, g'oyaviy yechimlarini ham ko'rsatib o'tganlar. Misol uchun, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, "Tarbiyaning zamoni", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi" kabi bo'limlarga ajratgan holda tadqiq etishi ham bu ma'suliyatli vazifa ekanligiga yana bir marotaba e'tiboringizni qaratadi.

Sharq adabiyoti o'tmishiga nazar solar ekanmiz, islomiy g'oyalar negizida

sugʻorilgan asarlar pand-nasihat, hikmatlar koʻrinishida yaratilganiga shohid boʻlasiz. Bu turdagi asarlar orqali farzand tarbiyasi masalasi islom madaniyatida katta ahamiyat kasb etganligini anglash mumkin. Bunday tarbiyaviy masalalarda koʻtarilgan gʻoyalar shaxsning maʼnaviy va jismoniy kamolotga erishishga qaratilgandir.

Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al Xorazmiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oʻzlarining beqiyos ilmlari bilan umuminsoniy maʼnaviyat, madaniyat va maʼrifat rivoji uchun katta hissa qoʻshganliklari butun dunyoga ayon.

Maʼrifatchilik gʻoyalarini ilgari surgan Gulxaniy, Ahmad Donish, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, jadidchilik harakatining namoyondalari – Behbudiy, Avloniy, Tavallo, Soʻfizoda, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon singari yozuvchi va shoirlar jamiyatni maʼrifat asosida tarbiyalashdek ulkan maqsad sari kurashdilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Afsuski, bugungi kunimizda farzandlarimiz, jamiyatimizning koʻplab yosh aʼzolari maqsadsiz kelajak sari odimlashlari ogʻriqli holatga aylanib boʻldi. Yoshlarimizning kasb tanlash borasida ham maqsadsiz intilishlari dolzarb masalaga aylangan. Taʼlim dargohlarida tahsil olayotgan talabalardan: maqsading nima?, kelajakda nima qilmoqchisan? – kabi savollar bilan murojaat qilar ekansiz, ularning aksariyati “amallab oʻqishga kirsam”, “ammalab tugatsam”, “amallab biror ish topib ishlarman” qabilidagi fikrlar bilan oʻralib qolishlari bizni sergaklikka chorlaydi. Bunday “amallab”lar qobigʻi maqsadsiz intilishlar natijasida borgan sari oʻralib borveradi.

Yuqorida oila va farzand tarbiyasi hamda maqsad haqida fikrlarni shunchaki yuritmadik. Naslimiz davomchilariga begʻubor bolaligidanoq oʻz oldiga jamiyat mafaati, vatan ravnaqi yoʻlida aniq maqsadlar qoʻyishni oʻrgatishdek vazifa ota-ona deb atalmish zotlarga ham sharaflari maʼsuliyat yuklaydi.

Shu o'rinda, teatr va kino san'ati rejissyorlari, aktyorlar, bastakorlar, shoirlar, honandalar va boshqa san'at egalariga shuni eslatib o'tishni joiz deb bildikki: siz ijod mahsulini ijro qilar yoki yaratar ekansiz, chinakam san'at asari talablari darajasida yondoshing. Siz ijro qilayotgan, yaratayotgan asarlaringizni jamiyat manfaatini ulug'lovchi, millat qadrini ko'taruvchi, milliy g'urur! Vatan! – deganda faxr tuyg'ularini qo'zg'atuvchi g'oyalar bilan sug'oring! Chunki, sizning ijodingiz zamirida yurtimiz bolalari ulg'aymoqda, shakllanmoqda! maqsadini aniqlashtirish va unga erishishi uchun aniq reja tuzishiga yordam bering. Bordi-yu tanlangan yo'lda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, zaxira varianti bo'lishi kerak. Yana biror kasbni ehtiyot shart ko'z ostingizga olib qo'ying.

Ota-onalar bolaga kasb tanlashda yordam berishlari mumkin, biroq uning o'rniga tanlab berishlari kerak emas. Ilgari bolalar 11-sinfni bitirguncha kasb borasida bir to'xtamga kelsalar bo'ldi edi. 15 yashar bola bilan 17 yasharning fikrlashi o'rtasida farq bor, albatta. Hozir bolalarimiz ertaroq kasb tanlashlari kerak ekan, bu o'rinda ota-onalarning ishtiroki ko'proq bo'ladi, albatta. Ammo bu ishtirok bosim yoki tazyiq emas, maslahat, muhokama va yo'naltiruv tarzida bo'lmog'i kerak. Xato qiladi, deb qo'rqmang. Xato ham kerak, dars bo'ladi. Hali yosh-ku, xatoni to'g'irlashga vaqti bo'ladi. Eng yomoni, har kuni o'zi istamagan ishni qilish. Bundan bola na moddiy manfaat, na ma'naviy huzur oladi. Shuning uchun unga yordam bering, xolos. Kasb tanlashdagi ishtirok va mas'uliyat ota-ona hamda farzand o'rtasida 60/40, uzog'i 50/50 nisbatda taqsimlanishi kerak. Albatta, ko'proq mas'uliyat va istak bola tomonida bo'ladi. Bolaning to'g'ri kasb tanlashi ota-onasi bilan o'rtada ishonch, oilaviy muhit barqaror bo'lgan sharoitdagina amalga oshadi.

Demak, ota-onaning vazifasi bolaga tayyor qarorni tiqishtirish emas, uning o'zi qaror qabul qilishiga yordam berish ekan, buni qanday amalga oshirish mumkin?

1-qadam. Kasblar ro'yxati va xarakteristikasini bir qog'ozga yozib chiqing. Inson kasb tanlar ekan, nafaqat tirikchilik vositasini, balki hayot tarzi va ijtimoiy muhitni ham tanlaydi. Bola bo'lajak kasbi qaysi talablarga javob berishi kerakligi ustida bosh qotirsin (ko'p pul keltirsinmi, tezroq mansab pillapoyalarida ilgarilash

imkoni bo'lsinmi, kasbi elga tanitsinmi va h.k). Bu kelajakdagi maqsadlarni aniqlashga yordam beradi.

2-qadam. Qanday kasblar bor? Qaysi kasb egasi nima ish qiladi, degan savollarga javob izlang. Biz, masalan, shifokor, o'qituvchi, jurnalist, novvoy kabi keng tarqalganlarini bilamiz. Lekin tor ixtisosliklar borki, ularga doim talab mavjud: olaylik, mashina quruvchilari, mikrobiologlar, nanomuhandislar va hokazo. Shular haqida ham qiziqib ko'ring.

3-qadam. Axborot to'plang! Farzandingiz bilan birgalikda mehnat bozori haqida ma'lumot yig'ing. Bunda sizga turli ma'lumotnomalar, ishga taklif e'lonlari yozilgan davriy nashrlar va internet saytlari yordam beradi. Kasblarning istiqbolini ham o'ylang: bugun kerak bo'lgan sohaga 10 yildan so'ng talab tushib ketishi mumkin. Shuni ham hisobga oling.

4-qadam. Gapdan ishga o'ting. Quruq suhbatlar bilan cheklanib qolish yaramaydi. Bilamizki, o'smirlar ota-onasining fikriga doim ham qo'shilaverishmaydi. Bunda ularning o'zi orttirgan tajriba ko'proq foyda beradi. Agar bolani ma'lum yo'nalish qiziqtirgan bo'lsa, biror to'garakda, korxonada ma'lum muddat shu kasb bilan shug'ullanishiga imkon yaratib bering: mayli, mashina tuzatib ko'rsin, biznes-reja tuzsin va hokazo.

5-qadam. Bolani kasb tanlash testlaridan o'tkazing. Hozir maktablarda bunday testlar o'tkaziladi, unda bolaning u yoki bu kasbga layoqati, qobiliyati va fikrlash tarzi tekshirib ko'riladi. Agar bunday testlash o'tkazilmagan bo'lsa, internet yordamga keladi. Ular farzandingizning ichki salohiyatini to'g'ri baholashga yordam beradi.

6-qadam. Ta'lim muassasasiga ekskursiya uyushtiring. Hozirda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Oliy ta'lim vazirligi tomonidan turli o'quv yurtlarida ochiq eshiklar kunlari o'tkaziladi. Farzandingizni shu tadbirlarga olib boring. Uning o'zi hal qilsin, bu o'quv yurtida o'qishni istaydimi yoki yo'q.

7-qadam. Muqobil variantlarni muhokama qiling. Bu institutga kira olmasa, nima bo'ladi? Yoki shartnoma asosida kirsa-yu, mablag' topilmasa-chi? Shunday vaziyatlar uchun qo'shimcha variantingiz bo'lishi kerak. Masalan, keyingi yil

harakat qilar, ungacha biror hunar o'rganib turar. Balki aynan shu hunar bolangizning kelajagiga aylanar.

Nima bo'lganda ham, kasb tanlash masalasini shundoq tashlab qo'ymang. Bu ota-onalarning eng katta xatosi. Faqat pul topish, oilaviy an'analar asosida kasb tanlash yoki ishsiz qolmaslik uchun qaerdadir shunchaki ishlab turish haqida esa umuman unuting, siz ham, farzandingiz ham! Bu echim emas, kelajakdagi muammolarning asosidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kelajak ertasi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda bolaligidanoq aniq kasbga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, sevib qolgan kasbi nuqta'i nazaridan jamiyat, Vatan ravnaqi manfaatlariga katta hissa qo'shadigan oliy maqsadlarni oldiga qo'yib, uni amalga oshirish yo'lida bel bog'laydigan farzandlarni tarbiyalash hamda kasbga yo'naltirish bugungi kunning muhim vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirish avvalo oila va uning asosiy yetakchilari bo'lmish ota-onalar zimmasidagi ma'suliyat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. 2016 8 dekabr. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. Aristotel. Poetika. –T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1980.
3. Knebel M. O. Poeziya pedagogiki. –M.: Iskustvo,1976.
4. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. T: O'qituvchi, 1995.